



TOP-CONFERENCES

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Raqamli Texnologiyalarni Qo‘Llash Orqali Soliq Nazoratini Takomilashtirish Masalalari

Quyliyev Ulug‘bek Rashidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali soliq nazoratining nazariy va iqtisodiy asoslari, bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari o‘rganilgan. Shuningdek mavzuga doir olib borgan tadqiqotlari natijasi bo‘yicha raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali soliq nazoratini takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliqlar, soliq nazorati, soliq tekshiruvi soliq to‘lovchilar, soliq tizimi, soliq organlari, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazorati soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash qo‘shimcha soliqlar, jarimalar va penylar shaklida budjetga qo‘shimcha to‘lovlarni undirish imkonini beruvchi hamda bu orqali soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish yoki minimallashtirishni ta‘minlaydigan turli raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va qo‘llashga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida “biz tadbirkorlarga soliq yukini ko‘paytirish emas, balki ularni qo‘llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish hisobidan budjetga tushumlarni oshirish yo‘lidan boryapmiz. O‘tkazilgan so‘rovlarda 62 foiz tadbirkorlarimiz soliq sohasidagi islohotlarimizni ijobiy baholagan” – deya ta‘kidlaydi¹.

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarida “soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlardagi ziddiyatlar va to‘qnashuvlarni bartaraf etish, halol soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish” respublika soliq tizimini isloh qilishning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi².

Jahonning aksariyat davlatlarida davlat budjetiga belgilangan soliq tushumlarining bir maromda kelib tushishini ta‘minlash, soliq qarzдорligini muvaffaqiyatli undirish mexanizmiga asoslangan

¹ Mirziyoev Sh.M. Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir. Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 18 avgust. 2023 yil.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 iyun 2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni. "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2018 yil 2 iyul, 26-son, 509-modda.

soliq nazoratini samarali tashkil etishga ustuvorlik berib kelinmoqda.

L.Kofler, Yu.Kashirinalar fikicha soliq nazoratini soliq tizimi faoliyatining muhim sharti soliq tekshiruvlari orqali amalga oshiriladigan samarali mexanizm³ deb hisoblaydi. Ushbu olimlarning yondoshuvida soliq tekshiruvi soliq organining soliqlar va budjetga boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq to'lanishi (o'tkazilishi) ustidan nazorat harakati, bu jarayonda soliq nazorati natijasida olingan haqiqiy ma'lumotlar soliq organlariga taqdim etilgan soliq deklaratsiyasi ma'lumotlari bilan taqqoslanadigan iqtisodiy mexanizmdir.


M.Sadchikov fikriga ko'ra "soliq tekshiruvi soliq nazoratining asosiy shakli bo'lib, soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha vakolatli organlarning protsessual harakatlari majmuidan iborat va u tekshirilayotgan shaxslarning hisobot ma'lumotlarini, soliq organlarining qarorlarini soliq to'lovchilar, yig'imlar to'lovchilar va soliq agentlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati bilan taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi"⁴ deb hisoblaydi.

Soliq mexanizmining asosiy elementlaridan biri – bu soliq nazorati. Soliq kodeksida «soliq nazoratining soliq tekshiruvlari va soliq monitoring»⁵ tartibida amalga oshirilish belgilangan. Soliq kodeksi 137-moddasida soliq tekshiruvlar quyidagicha e'tirof etilgan. «Soliq tekshiruvlari soliq to'lovchilar, yig'imlarni to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchi to'g'risida soliq organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o'tkazadi:

1. kameral soliq tekshiruvi;
2. sayyor soliq tekshiruvi;
3. soliq auditi»⁶.



1-rasm. Soliq nazoratining hozirgi modeli

³ Кофлер Л.И., Каширина Ю.П. (2017). Налоговые проверки: виды, порядок проведения и оформления результатов. Территория науки. № 1.

⁴ Садчиков Михаил Николаевич (2010). Камеральные и выездные налоговые проверки как формы налогового контроля. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Саратов.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 136 modda. 2025.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 136 modda. 2025.

Soliq tekshiruvlari «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan «Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga asosan o‘tkaziladi»⁷. Soliq nazorati to‘g‘ri shakllangan soliq siyosatiga rioya qilinishini hisobga oladigan soliqqa tortish mexanizmi samarali soliqqa tortishning zaruriy shartidir.

Soliq nazorati yo‘nalishi bo‘yicha bugungi kunga qadar quyidagi axborot tizimlari ishlab chiqilgan:

- "Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish" (APRAY) AT (2013)
- "Bozorlar hisoboti" AT (2014)
- "NKM" AT (2015)
- "Tekshiruvchi xodimlar" AT (2014)
- "Pasportlashtirish" AT (2018)
- "Soliq hamkor" AT (20 % billing) (2020)
- "Onlayn NKM" AT (2020)
- "Taxlika-tahlil va kameral nazorat" AT (2020)
- "Elektron tijorat reestri" AT (2020)
- "Soliq tekshiruvlari — 2021" AT (2021)
- ASK KKT(2021)
- "Ko‘chma savdo obektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish" AT (2022)
- "Onlayn NKM va virtual kassa ma‘lumotlari asosida tahlillarni o‘tkazish" AT (ONKT Dashboard Clickhouse) (2022)
- "Avtokameral" AT (2022)
- "Soliqchi-ko‘makchi" AT (2022)
- "Avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari" (AGQTSh) AT(2022)
- "Soliq auditi" AT (2023)
- "Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash" AT (2023)
- "Sayyor soliq tekshiruvlarning xodimlarini baholash tizimi" AT (2023)

Ushbu tizimlar orqali soliq nazorati avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish yuzasidan ishlab chiqilgan.

«O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM”ning 5-bobida sayyor soliq tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish tartibi belgilangan. Nizomning 63-bandida soliq to‘lovchilar tomonidan savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishi, shu jumladan, ular tomonidan nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo‘llanilishi bo‘yicha sayyor soliq tekshiruvlarini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining «Soliq hamkor» avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek fuqarolardan tushgan murojaatlar va o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Soliq qo‘mitasining axborotlarni qayta ishlash markazi tizimida joylashtirilishi ko‘rsatilgan. «Soliq hamkor» avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali soliq to‘lovchilardan savdo

⁷O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom.

va xizmat ko'rsatish qoidalari buzilishi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarning ko'rib chiqilishi axborot tizimi ma'lumotlar bazasi asosida tahlil qilinadi.

2024 yilda 50 141 ta (2023 yilda 54 031 ta) sayyor soliq tekshiruvlari tashkil etilgan.

18 585 nafar fuqarolar tomonidan 99 128 ta soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berilgan, shundan 37 897 tasida nazorat kassa texnikasi va to'lov terminallaridan foydalanish bo'yicha mavzuli sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilgan. Ularning 37 495 tasi yoki 98,9 foizda huquqbuzarlik holatlari o'z tasdig'ini topgan.

2024 yil kelib tushgan murojatlar mazmuni:

- Chek bermaslik 90 216 (91,0 foiz)
- To'lovni plastik karta orkali qabul qilmaslik 4 273 (4,3foiz)
- Plastik karta uchun xarid summasini oshirish 212 (0,2foiz)
- Boshqalar 4 427 (4,5foiz)

Natijada, huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan soliq to'lovchilardan 135,1 mlrd. so'm jarimalar undirilib, ushbu jarima hisobidan xabar bergan fuqarolarga 22,9 mlrd. so'm mukofot pullari to'lab berilgan.

2024 yildan tekshiruvdan oldingi tahlil – "Avtokameral" ATda 504 ta mezon asosida soliq to'lovchilarga xato-kamchiliklarini mustaqil bartaraf qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. "Avtokameral" AT orqali soliq to'lovchilarning hisobotlarida aniqlangan tafovut va xatoliklarning qariyb 12,6 trln. so'mi bo'yicha ixtiyoriy ravishda aniqlashtirilgan hisobotlar taqdim etilgan va 4,6 trln. so'mlik moliyaviy jarimalar qo'llanilishining oldi olindi. Natijada, budgetga 3,1 trln. so'mlik qo'shimcha soliqlar hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvi - soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o'tkaziladi.

2024 yilda 31 938 ta kameral soliq tekshiruvi o'tkazilib, 1 302,7 mlrd. so'm (2023 yilda 50 762 ta, 9,1 trln.) qo'shimcha soliqlar hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 140-moddasiga muvofiq, soliq auditi bu muayyan davr uchun soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lashning to'g'riligini tekshirishdir.

Soliq auditi - soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining muayyan davr uchun soliqlar va yig'implarning hisoblanishi hamda to'lanishining to'g'riligini tekshirish maqsadida uning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslash yo'li bilan o'tkaziladi va soliqqa oid huquqbuzarliklarni hujjat-dalillar asosida tasdiqlash va soliq auditi dalolatnomasida aks ettirilishidan iborat.

2024 yilda 2 143 ta (2023 yilda 1 066 ta yoki 2 baravar) soliqdan qochish havfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarda soliq auditi o'tkazilib, 6 217,2 mlrd. so'm qo'shimcha soliq va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan.

2024 yilda soliq majburiyatiga ega 520 557 ta korxonaning 84 222 sida yoki 16,2 foizida (2023 yilda 570 372 ta korxonaning 105 859 tasi yoki 18,5 foizida) tekshiruvlari tashkil etilgan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlarning barqarorlik reytingi joriy qilinganidan kelib chiqib, Soliq qo'mitasining «Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi» elektron platformasida shakllanadigan reytingi yuqori tadbirkorlar uchun imtiyozli soliq kreditlari ajratilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

“Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past darajada tasniflangan

mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beruvchi kichik va o'rta biznes subektlarining faoliyatini ixtiyoriy ravishda tugatishda soliq tekshiruvi o'tkazilmaslik lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir. Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 18 avgust. 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 iyun 2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018 yil 2 iyul, 26-son, 509-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 136 modda. 2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida" gi Nizom.